
Mahallada sumalak sayli o'tkazildi

“O‘zbekiston” mahalla fuqarolar yig‘inida ham milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz hamoxangligida madaniy tadbirlar, hasharlar o‘tkazilmoqda. Dam olish kunlari sumalak sayli o‘tkazildi. Unda mahalla ahli faol ishtirok etishdi. O‘zgacha fayz va tarovat bilan o‘tgan tadbirda nuroniylar yurtimiz tinch, yoshlarimiz komil inson bo‘lib kamol topishlarini tilab duolar qilishdi.

Shu kuni mahalla ko‘chalari aholi tomonidan tozalandi, hududlardagi ortiqcha maishiy chiqindilar olib chiqib ketildi. Bo‘sh turgan yer maydonlariga mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari ekildi. Dov-daraxtlarga shakl berilib, oqlandi.

Milliy taomimiz bo‘lgan sumalak ehtiyojmand oilalar hamda bemorlarga tarqatildi.

2023-03-06 16:10:55